



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SIRDARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

2023- YIL YANVAR-OKTABR


SIRDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- noyabr holatiga Sirdaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1 078 tani tashkil etdi.


Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 362 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 33,6 % Guliston shahrida joylashgan.

2023- yil 1-noyabr holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda


Guliston sh	362
Mirzaobod tumani	120
Sirdaryo tumani	97
Yangiyer sh	84
Guliston tumani	77
Boyovut tumani	71
Sayxunobod tumani	70
Xovos tumani	64
Oqoltin tumani	57
Sardoba tumani	38
Shirin sh	38



Fuqarolik obyektlarini qurish



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari





Bino va inshootlar qurilishi

Shuningdek, Guliston shahrida 362 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 33,6 %), Mirzaobod tumanida – 120 ta (11,1 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-oktabr uchun)


2023- yilning yanvar-oktabr oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 3 099,4 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,3 % ni tashkil etdi.



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida Sirdaryo viloyatida qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2022- yilning mos davriga nisbati, %da




2023- yilning yanvar-oktabr oylarida hududlar kesimida xususan, Guliston shahri (853,7 mlrd. so'm), Mirzaobod tumanida (747,0 mlrd. so'm) va Sirdaryo tumanida (508,2 mlrd. so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 60,2 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,9 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 37,2 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 2,6 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 79,3 % yoki 2 458,6 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 582,2 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 23,7 % ni tashkil etdi.

23,7 %

582,2
mlrd. soʻm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1 743,9 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 70,9 % ni tashkil etdi.

70,9 %


1 743,9
mlrd. soʻm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 132,5 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.

5,4 %


132,5
mlrd. soʻm

Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Guliston shahri (650,9 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (594,6 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (437,3 mlrd. so'm) va Sardoba tumani (150,9 mlrd. so'm) qayd etildi.



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – **1 865,5 mlrd. so'm**

21,9 %

Yirik qurilish
tashkilotlari

408,3
mlrd. so'm

2022- yilning mos
davriga nisbatan

93,8 %

66,1 %

Kichik korxonalar
va
mikrofirmalar

1 232,4
mlrd. so'm

2022- yilning mos
davriga nisbatan

109,6 %

12,0 %

Norasmiy sektor

224,8
mlrd. so'm

2022- yilning mos
davriga nisbatan

104,4 %

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 21,9 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,6 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,7 % punktga ko'payib, 66,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga kamayib, 12,0 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

Maʼlumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Xovos tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 77,0 %), Sardoba tumani (69,3 %) va Shirin shahri (68,8 %) da kuzatildi.



Xovos tumani
77,0 %



Sardoba tumani
69,3 %



Shirin shahri
68,8 %

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish, *mlrd. so'm*

15,1 %

Yirik qurilish
tashkilotlari

173,9

mlrd. so'm

2022- yilning mos
davriga nisbatan

88,1 %

84,9 %

Kichik korxonalar
va mikrofirmalar

980,6

mlrd. so'm

2022- yilning mos
davriga nisbatan


110,7 %

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 15,1 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,0 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 84,9 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,0 % punktga ko'paydi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Guliston shahri (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 49,4 %), Mirzaobod tumani (38,6 %) va Oqoltin tumani (32,8 %)da kuzatildi.



49,4 %
Guliston shahri



38,6 %
Mirzaobod tumani



32,8 %
Oqoltin tumani

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, mlrd. so'm




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,5 % punktga ko'paydi va 2,6 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

Maʼlumot uchun:
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Boyovut tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 7,2 %), Sayxunobod tumani (5,8 %) va Xovos tumanida (4,9 %) kuzatildi.



7,2 %
Boyovut tumani




5,8 %
Sayxunobod tumani



4,9 %
Xovos tumani

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –

92,0 %

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –


109,6 %

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –

102,3 %


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 582,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 92,0 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,7 % ga kamayib, 18,8 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

Guliston sh.	16,7
Shirin sh.	124,1
Yangiyer sh.	1,2
Boyovut	2,2
Guliston	24,2
Mirzaobod	112,1
Oqoltin	0,5
Sardoba	117,5
Sayxunobod	1,3
Sirdaryo	140,9
Xovos	41,5

Jamiga nisbatan ulushi



Shirin sh.



Sardoba tumani




Xovos tumani

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Shirin shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 71,6 % i), Sardoba tumanida (53,5 %) va Xovos tumanida (35,1 %) qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 74,0 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,6 % ni tashkil etgan holda 2 292,4 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

oldingi yilning mos
davriga nisbatan
161,9 %

oldingi yilning mos
davriga nisbatan
87,8 %

oldingi yilning mos
davriga nisbatan
109,6 %




128,1 %
oldingi yilning mos
davriga nisbatan


102,9 %
oldingi yilning mos
davriga nisbatan

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

Hududlarning hajmi, mlrd. so'm



Jamiga nisbatan ulushi



Guliston shahri



Mirzaobod tumani




Sirdaryo tumani

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahrida (798,6 mlrd. so'm), Mirzaobod tumanida (620,6 mlrd. so'm) va Sirdaryo tumaniga (295,5 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 7,2 % ni yoki 224,8 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni tashkil etdi. Shundan 124,9 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,4 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 7,6 mlrd. soʻmni va 93,4 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 92,3 mlrd. soʻmni va 104,2 % ni tashkil etdi.

oldingi yilning mos davriga nisbatan **123,7 %**

oldingi yilning mos davriga nisbatan **91,1 %**

oldingi yilning mos davriga nisbatan **102,3 %**

200,1
mlrd. soʻm

206,3
mlrd. soʻm

202,0
mlrd. soʻm

191,9
mlrd. soʻm

224,8
mlrd. soʻm

2019

2020

2021

2022


2023

84,9 %
oldingi yilning mos davriga nisbatan

84,4 %
oldingi yilning mos davriga nisbatan

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



71,8 mlrd. soʻm
Sirdaryo tumani



38,4 mlrd. soʻm
Guliston shahri




22,1 mlrd. soʻm
Xovos tumani

Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Sirdaryo tumanida (71,8 mlrd. soʻm), Guliston shahrida (38,4 mlrd. soʻm) va Xovos tumanida (22,1 mlrd. soʻm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-sentabr oylaridagi hajm, mlrd. so'mda



■ Davlat mulkchiligi

■ Nodavlat mulkchilik

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 98,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3 000,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,2 % va 96,8 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Shirin shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 97,8 %), Mirzaobod tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 97,8 %) va Guliston shahrida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 97,6 %) qayd etildi.

Qurilish ishlari USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

**Sirdaryo viloyati Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Tel. 67 236-70-00 (2020)